QORAQALPOG‘ISTON AHOLISINING TABIIY VA MIGRATSION HARAKATI

Qalmuratov Rinat Faraxat ulı
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Qaroqalpog‘iston Respublikasinig aholisining tabiiy harakati, uninga tasir ko‘rsatuvchi omillar va so‘ngi yillardagi o‘zgarishlar o‘rganilgan. Shungdek, respublika aholisining migraciya harakatlari ham uning sabablarini ochib berilgan.*

Tayanch so‘zlar*: aholi, ta’biiy ko‘payish, migraciya, jarayon, mintaqa, omil, tug‘ilish, o‘lim, demografiya.*

Abstract: *The article examines the natural movement of the population of the Republic of Karakalpakstan and the factors influencing it and the changes in recent years. The migration efforts of the population of the republic are also revealed.*

Key words: *population, natural increase, migration, process, region, factor, birth, death, demography*

Malumki, u yoki bu mintaqada aholi sonining o‘sishi yoki kamayishiga tabiiy ko‘payish va migratsiya jarayonlari, shuningdek, mamuriy-hududiy o‘zgarishlar ham tasir qiladi. Ammo, aholi sonining o‘sishida tabiiy ko‘payish muhim omil hisoblanadi. Barcha o‘tgan davrlarda Qoraqalpog‘istonda aholining o‘sishida tabiiy ko‘payish asosiy manba bo‘lib kelgan. Lekin keyingi yillarda mintaqada yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik vaziyatga bog‘liq aholining tabiiy ko‘payish darajasi ancha kamaydi. Faqatgina, keyingi 5-6 yilda ushbu jarayonning biroz o‘sganligi seziladi.

Respublikada aholining tabiiy harakati 1991-yillar mobaynida ancha yuqori va barqaror bo‘lib,. bundan keyingi davrda tabiiy ko‘payish kamaydi. Aholining tabiiy ko‘payish jarayonlari 1991-yildan 2005-yillargacha pasayib kelgan keyin yana biroz o‘sgan. Lekin uning o‘rtacha yillik ko‘payishi oldingi davrdan kam bo‘ldi.

1979-1989-yillardagi aholi ro‘yxatlari davrida Qoraqalpog‘istonda aholining tabiiy harakatlari eng yuqori cho‘qqisiga etib, u mintaqaning barcha tumanlarida 30 promilledan ortiq bo‘lgan. Bu jarayondagi keskin o‘zgarishlar 1989-1999 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu esa tug‘ilishning qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘tish davridagi qator iqtisodiy-ijtimoiy omillar sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, unga jahonda sodir bo‘layotgan demografik o‘tish jarayoni, yani aholining ongli ravishda o‘z oilalarini rejalashtirishi natijasida ko‘p farzandli oiladan kam farzandli oilaga o‘tishi tasir etmoqda.

Mustaqillikdan keyingi davrda, yani 1991-2008-yillar mobaynida aholining tabiiy ko‘payishi 30,1 dan 18,6 promillega kamaygan. Demak, mazkur davrda uning ko‘rsatkichi deyarli ikki barobarga kamaygan. Mintaqada nafaqat aholi tug‘ilishi, balki uning o‘lim darajasi ham birmuncha kamayganligi kuzatildi. Lekin u tug‘ilish darajasiga nisbatan ancha sekin sodir bo‘ldi. Jumladan, ko‘rilayotgan yillarda Qoraqalpog‘istonda aholi tug‘ilishi 36,9 dan 20,6 promillega, o‘lim darajasi esa 6,8 dan 4,8 promillega kamaygan va bundan tug‘ilish biroz pasaygan va barqarorlashish ro‘y bermoqda [2. 35 b.].

Qoraqalpog‘istonda ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillar natijasida aholining tabiiy ko‘payishida hududiy tafovutlar vujudga kelib, mavjud holat qishloq tumanlari bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi 1991-yilda respublika bo‘yicha aholining tug‘ilishi 36,9 promilleni tashkil etgan holda, mazkur ko‘rsatkich eng kam Nukus shahrida (31,9‰) va eng yuqori Qonliko‘l tumanida (45,0‰) kuzatilgan. Tahlillar ko‘rsatishicha, Qoraqalpog‘istonda tug‘ilish koeffitsienti yil sayin kamayib, 2025-yilda Qoraqalpog‘istonda 15,8 promille va bu holat barcha tumanlarda o‘rtacha 13,5-14,0 promille atrofida bo‘ldi.

Aholi tug‘ilish darajasi barcha tumanlarda bir hil emas, lekin o‘lish darajasi deyarli baravar. Shu bois, shahar va tumanlarda aholi tug‘ilishidagi tafovutlarini aniqlashda uning o‘rtacha ko‘rsatkichidan foydalanish afzal va shu asosda ular quyidagicha guruhlarga ajratiladi: **birinchi guruhga**, tug‘ilish darajasi yuqori Amudaryo, Nukus, To‘rtko‘l, Beruniy, va Ellikqala tumanlari; **ikkinchi guruhga**, yuqoridagi holat o‘rtacha bo‘lgan Qonliko‘l, Qo‘ng‘irot, va Chimboy tumanlari; va **uchinchi guruhga** aholi tug‘ilishi past hisoblangan Kegayli, Xo‘jayli, Shumanay, Mo‘ynoq, Qorao‘zak, Taxtako‘pir tumanlari hamda Nukus va Taxiyatosh shaharlari kiradi.

Ko‘rilayotgan yilda tug‘ilish kabi aholining o‘lim darajasida ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘lib, u 6,8 dan 4,7 promillega kamaydi. Albatta, ushbu ko‘rsatkich tug‘ilish jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlarga nisbatan kichik, ammo aholi o‘limining kamayishi mintaqaning ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Chunki, aholi o‘limi uning turmush sharoitining, jumladan ekologik vaziyatining yaxshilanishi bilan ham bog‘liq. Qoraqalpog‘iston umumiy va go‘daklar o‘limining yuqoriligi bilan mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan ajralib turadi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonda aholi sonining o‘sishi va uning joylanishiga jiddiy tasir etayottgan omillardan biri mintaqada ro‘y berayotgan migratsiya jarayonidir. Ushbu jarayon respublikada emigratsiyaning immigratsiyaga nisbatan ortiqlig‘i va buning natijasida migratsiyaning salbiylashuvi bilan aholi soni o‘sish suratining kamayib borishida o‘z aksini topgan. O‘z navbatida, migratsiyaning rivojlanishiga mintaqada vujudga kelgan ekologik vaziyat va bozor munosabatlariga

o‘tish davridagi yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoit tasir qilmoqda. Shuningdek, migratsiya jarayonida tarixiy, milliy va etnik omillarning ham ahamiyati katta.

Mamlakatimizning migratsiya tarixi juda uzoq davrni o‘z ichiga oladi va u juda murakkab kechgan. Jumladan, o‘tgan asrning 30-yillaridagi qurg‘oqchilik paytida O‘zbekistonga ko‘plab qozoqlarning ko‘chib kelishi kuchaygan. O‘sha davrda Qoraqalpog‘iston aholisining milliy tarkibi shakllanib, ayniqsa uning iqlim va tabiiy sharoiti sholikorchilik hamda chorvachilik uchun qulayligi, mintaqaga koreys va qozoq millati vakillarining ko‘chib kelishiga asosiy omil bo‘ldi. Takidlash joizki, mazkur davrda ayrim xalqlar Markaziy Osiyo respublikalariga surgun qilinib ham keltirilgan [3. 482-b.].

Bundan keyingi davrda, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida dushmanga vaqtinchalik tashlab ketilgan hududlardagi aholi va sanoatni sharqqa, jumladan O‘zbekistonga ko‘chirilishi natijasida respublikaga yana ham ko‘proq millat vakillarining kelib o‘rnashishiga sabab bo‘ldi. Keyinchalik, O‘zbekistonga ko‘plab malakali kadr va mutaxassis ishchilar, asosan rus, ukrain, belarus va boshqa millat vakillari muntazam ravishda ko‘chib kelib turganlar. Ushbu jarayonlar Qoraqalpog‘istonda aholi milliy tarkibining shakllanishiga malum darajada tasir qildi.

Shunday qilib, Qoraqalpog‘istonda aholi migratsiyasining natijasi o‘tgan asrning 90-yillarigacha ijobiy bo‘lib, tabiiy ko‘payishning yuqoriligi tufayli aholi sonining o‘sishi juda tez bo‘ldi. Sobiq Ittifoqning parchalanishi, uning o‘rnida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan migratsiya jarayoni yanada jiddiy tus oldi. Davlatimiz aholisining ko‘p millatli ekanligi, boshqa millat vakillarining, qolaversa, Orol dengizining qurib borishi tufayli mintaqada ekologik vaziyatning vujudga kelishi va buning oqibitlarining tabiatga, ayniqsa, aholi salomatligiga jiddiy tasiri hududda etnik va ekologik migratsiyaning avj olishiga olib keldi. Tashqi migratsiyaning katta oqimi Qoraqalpog‘istonning shimoliy va markaziy mintaqalari uchun xos bo‘lib, mazkur hudud migratsiya jarayonini hosil qiluvchi yuqoridagi omillarni o‘zida mujassam etgan [1. 32-b.].

Demografik jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, aholi migratsiyasi nafaqat aholi soni, balki uning tabiiy harakati, joylanishi, yosh-jins va milliy tarkibiga ham katta tasir qildi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu jarayon sodir bo‘layotgan mintaqalarda qator muammolarni keltirib chiqaradi. Malumki, migratsiyada asosan yoshlar va uning aksariyatini erkaklar tashkil etadi. Shu bois, u demografik jarayonlarga, yani tug‘ilish, o‘lim va nikohga malum darajada o‘z tasirini ko‘rsatadi.

2000-2025-yillarda Qoraqalpog‘istonda migratsiya qoldig‘i minus ko‘rsatkichni taskil qilgan. Shuningdek aholi migratsiyasi mintaqalarda bir-biridan keskin farq qildi. Bunga, birinchidan, ularning joylashgan geografik o‘rni, tabiiy-

geografik sharoiti va geoekologik vaziyati sabab bo‘lsa, ikkinchidan, iqtisodiy-ijtimoiy omillar, shuningdek, aholining milliy tarkibi katta tasir qilgan (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisi miratsiyasi dinamikasi (2000-2020 yy.)

Yillar	Jami		
	kelganlar	ketgalar	saldo
2000	12927	16846	-3919
2001	12066	20680	-11290
2002	17249	30342	-13093
2003	11397	26207	-14810
2004	14709	32064	-17355
2005	12783	34106	-21323
2006	12375	28135	-15760
2007	15235	30722	-15487
2008	13686	23574	-9888
2009	12723	28324	-15601
2010	14275	26971	-12696
2015	10850	16181	-5331
2020	7778	12517	-4739
2025	13200	18622	-5422

QR statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi

Qoraqalpog‘istonda aholi tabiiy ko‘payishi uning sonining o‘sishidan yuqori bo‘ldi. Umuman olganda, Qoraqalpog‘istonda migratsiya jarayonlari, keyingi yillarni hisobga olmaganda, keskin darajada salbiy bo‘lib, bu jihatdan mintaqalarda uning o‘rtasidagi tafovut kattalashib borgan. Ayniqsa, bu holatni mintaqaning shimoliy va markaziy tumanlarda kuzatish mumkin. Buning natijasida ushbu mintaqalarda aholi soni o‘sishi sekinlashgan, ayrim tumanlarda uning soni turg‘unlashib, kamayishiga tasir qilmoqda. Janubiy tumanlarda esa migratsiya saldosi salbiy bo‘lsa-da, u past darajasi bilan ajralib turadi [4. 32-b.].

Qoraqalpog‘istondagi demografik o‘zgarishlar va ularning tahlilidan malumki, sodir bo‘layotgan jarayonlar shimoldan janubga, yani Orol dengizidan uzoqlashib borgan sari farqlanib boradi. Bunday hududiy tafovutlarni aholining tabiiy ko‘payish jarayonlari, ayniqsa o‘lim ko‘rsatkichlari, tashqi migratsiya va joylanishida ham ko‘rish mumkin. Masalan, aholisining asosiy qismi Orol dengizining qurigan tubidan, yani Orolqum cho‘lidan 100 km gacha uzoqlikda Mo‘ynoq, Kegayli, Chimboy, Taxtako‘pir, Qorao‘zak va Qo‘ng‘irot tumanlari, 100–150 km gacha bo‘lgan

hududlarda Nukus, Xo‘jayli, Shumanay va Qonliko‘l tumanlari hamda 150 km dan uzoqda Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l va Ellikqala tumanlari joylashgan [4. 37-b.].

Qoraqalpog‘istonda aholining o‘sishidagi o‘zgarishlar davriylik va hududiylik nuqtai nazardan katta tafovutlarga ega bo‘ldi. Binobarin, bunday tafovutlar mintaqada aholi joylanishidagi o‘zgarishlarga olib keldi. Aholi joylanishidagi o‘zgarishlarda uning janub tomonga siljishi va markazlashuv jarayoni sodir bo‘lib, ular aholi ulushi ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allanazarov K., Khodjaeva G., Shields K. IMPLICATIONS OF THE LINKS BETWEEN DEMOGRAPHY AND ECOLOGY FOR THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Karakalpak Scientific Journal. – 2021. – T. 4. – №. 2. – С. 30-40.

2. Ходжаева Г.А., Ембергенов Н., Алланазаров К.Ж. Population Growth in Republic of Karakalpakistan//Наука и образования в Каракалпакстане. Научный журнал.№2, 2017. 35-38 стр.

3. Ходжаева Г.А., Алланазарова Б.К., Байрамова М.Д., Курбаназаров Б Развитие миграционных процессов Республики Каракалпакстан //Журнал Экономика и социум. 6(85) июнь 2021, Россия, 479-485

4. Xodjaeva G.A., Embergenov N.J. Qaraqalpaqstan Respublikasınıń demografiyası.// Monografiya. Nókis, «Miraziz Nukus» 2021 104 b.